

Dolzarb mavzu

Yurtimizda yuksak intellektual salohiyatga ega, jahon mehnat bozori, ilm-fan va texnologiyalar olamida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash borasida muhim qadamlar tashlanmoqda. Shu nuqtani nazardan Andijon davlat universitetida jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik o'rnatilib, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy qilinmoqda.

**Integratsiyalashuv samarasi**

Universitetda ta'lim jarayoni bosqichma-bosqich xalqaro talablarga moslashtirilmoqda. Joriy o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim jarayoni yangi standartlar va malaka talablari asosida

tayyorlash ilmiy faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Ana shu maqsadda o'tgan yil "El-yurt umidi" jamg'armasi hamda oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida professor-o'qituvchilar xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o'tash



kredit-modul tizimiga o'tkazildi, - deydi **Andijon davlat universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor Akramjon YULDASHEV.** - Ta'lim jarayonini ortiqcha me'yorlashtirishni qisqartirish maqsadida amaldagi ayrim standartlardan voz kechishga to'g'ri kelyapti. Yangi standartlar va malaka talablari asosida kredit-modul tizimiga mos ravishda 54 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi va 12 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalar hamda shunga mos o'quv dasturi ishlab chiqildi.

uchun yuborildi. Tahsil olayotgan tayanch doktorantlar soni o'tgan yili 120 nafar bo'lgan bo'lsa, joriy yilda 194 nafarga yetkazildi. Ya'ni 2-3 yilda universitetga shuncha nafar falsafa doktori va fan doktorlari malakali mutaxassislarini tayyorlash jabhasiga kirib keladi.

**Boshqaruv raqamlashtiriladi**

Bugun universitetda ta'lim jarayoni-ga bog'liq turli tashkilot va muassasalaridan olinadigan hisobot va ma'lumotlar

**Raqamlar yuksalishi**

Universitetda 2019-yil 35 ta kafedrada 789 nafar profes-



# SAODAT YO'LI BILIM BILAN BILINADI

yo'xud Andijon davlat universitetida olib borilayotgan islohotlarga bir nazar



sonini keskin kamaytirish, hujjatlarining qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida loyiha ustida ishlanmoqda. Joriy etilayotgan ushbu axborot tizimi ma'muriy, o'quv, ilmiy va moliyaviy jarayonlarni boshqarish modullarini o'z ichiga oladi. Bu esa shubhasiz ta'lim tizimidagi tub ijobiy burilishlar sifatida xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilishiga olib keladi.

Jamiyatdagi qaysi jabhaga nazar solmaylik, ilgari surilayotgan xalq tashabbusi, albatta, qo'llab-quvvatlanmoqda, bir so'z bilan aytganda, xalqning roziligi yo'lida tinimsiz harakat qilinayotir. Prezidentimiz har bir nuqtada yangi fikr va g'oyalarni, taraqqiyotimizni belgilaydigan ustuvor yo'nalishlarni taklif etarkan, O'zbekistonni yangi bosqichga olib chiqish omillari, rivojlanishga g'ov bo'layotgan holatlar, mavjud muammolarni hal qilishning nosta'ndart yechimlarini aniq, ravon, xalqchil uslubda tushuntirib berdi. Har bir davlatning rivojlanuvchi kuchi uning ta'lim tizimidir.

sor-o'qituvchi faoliyat olib borgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tib, kafedralar soni 2 taga ortib, jami 852 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib bordi. Fan doktorlari (DSc) 7 nafarga, fan nomzodi va falsafa doktorlari (PhD) 56 nafarga oshdi. Natijada 2019-yilga nisbatan universitetda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengashlar soni 3 tadan 5 taga ko'paydi. Ilmiy salohiyat ham mazkur yillar davomida 7 foizga o'sdi.

2017-yili 2 nafar iqtidorli talaba Talabalar respublika fan olimpiadasida g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2020-yili 9 nafar iqtidorli talaba "Kimyo", "Musiqqa nazariyasi va tahlili", "Musiqqa tarixi", "Nemis tili", "O'zbek tili", "Rus tili", "Geografiya", "Matematika" singari yo'nalishlarida g'oliblikni qo'lga kiritib, o'sish ko'rsatkichlariga hissa qo'shishdi.

O'tgan besh yil davomida har yili 5 nafardan iqtidorli talaba "Navoiy", "Mirzo Ulug'bek", "Islom Karimov" nomidagi davlat stipendiyalari g'oliblari bo'lishdi. 2018-yili Xalqaro fan olimpiadalarida 1 nafar iqtidorli talaba g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2021-yili 2 nafar iqtidorli talabaga bunday g'oliblik nasib etdi.

Universitetda 2019-yili mualliflik guvohnomalari 28 ta bo'lgan bo'lsa, o'tgan yili esa 57 tani tashkil etdi. Chop etilgan monografiyalar 10 tadan 15 taga oshib, yana qo'shimcha 14 ta darslik va 56 ta o'quv qo'llanmalar nashr etildi.

**Universitetda 2019-yil 35 ta kafedrada 789 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib borgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tib, kafedralar soni 2 taga ortib, jami 847 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib bordi. Fan doktorlari (DSc) 7 nafarga, fan nomzodi va falsafa doktorlari (PhD) 56 nafarga oshdi. Natijada 2019-yilga nisbatan universitetda doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish bo'yicha ilmiy kengashlar soni 3 tadan 5 taga ko'paydi. Ilmiy salohiyat ham mazkur yillar davomida 7 foizga o'sdi.**

Professor-o'qituvchilar tomonidan o'tgan yili ilm ahlining xorijiy nashrlarda 561 ta, respublikamizning ilmiy jurnallarida esa 668 ta ilmiy maqolalari ilmiy jamoatchilik hukmiga havola qilindi.

2019-yili 5 ta ilmiy-tadqiqot loyihasi va 3 ta Xalqaro grantlar bajarilgani natijasida 3 ta xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari grantlari hisobiga umumiy summasi 53,9 ming AQSH dollarlik ilmiy loyiha amalga oshirildi. 2020-yili 4 ta fundamental loyihaga, davlat budjeti mablag'lari hisobidan 417,0 million so'm, 2 ta amaliy loyihaga, 579,7 million so'm ajratildi. Bu borada ham ko'rsatkichlar oshib, o'tgan yilda amaliy loyihalarga ajratilgan mablag' 2285,0 million so'mni tashkil qildi.

**Sarflangan sarmoya jamiyatga foyda**

2022-yili rivojlanishning o'ziga xos



dasturi — 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" qabul qilindi. Mazkur muhim dastur 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining uzviy davomi bo'lib, uning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi bo'lmish "adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish"da belgilangan maqsadlarda ta'lim tizimining barcha bo'g'inini

jadal rivojlantirishga doir masalalar belgilab qo'yildi. Bugun O'zbekistonda bola tug'ilganidan to 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratilmoqda. Dunyo tajribasidan ma'lumki, yosh avlodni barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi.

Yangi O'zbekiston sharoitida milliy ta'lim tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlarni qator universitetlar misolida ko'rish mumkin. Eng avvalo, talaba moddiy qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayni paytda oliy ta'lim dargohiga o'qishga kirishi uchun yoshlarimiz qator imtiyozlardan foydalanmoqda. Bilimi va salohiyati yetarli yoshlarning asosiy qismi davlat granti asosida qabul qilinadi. Shu bilan birga, talabalar uchun ham qator imtiyoz va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Jumladan, 2021–2022-o'quv yi-



**Ezgu maqsadlar ifodasi**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 16-iyun kuni Oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida dunyo hamjamiyati tan oladigan fikrlarni ilgari surdi, - deydi universitet rektori, professor Akramjon Yuldashev. - Yoshlarni bilim va malakali etib tarbiyalash, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar tayyorlash maqsadida tizimni izchil rivojlantirish masalalarini o'rta qo'lga kiritgan bo'lsa, 2021-yili 9 nafar iqtidorli talaba "Kimyo", "Musiqqa nazariyasi va tahlili", "Musiqqa tarixi", "Nemis tili", "O'zbek tili", "Rus tili", "Geografiya", "Matematika" singari yo'nalishlarida g'oliblikni qo'lga kiritib, o'sish ko'rsatkichlariga hissa qo'shishdi.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini bozor talablari bilan moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviylikni ta'minlash va talabning o'z ustida ishlashi uchun muhit yaratish, uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini

uchun qog'ozbozlikni kamaytirish, sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirishni ilgari surdilar.

Bu vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishini muhtaram yurtboshimiz alohida ta'kidladi. Ya'ni bundan buyon, o'quv rejasi va adabiyotlar, fan dasturlarini joriy etish, professor-o'qituvchilarning o'quv yuklamasi hamda ta'lim shakllarini belgilash universitet boshqaruv kengashi tomonidan amalga oshiriladi. Endi har bir kafedra-ning faoliyati uning ilmiy salohiyati va talaba yoshlarni ilmiy faoliyatga qay darajada jalb etish ko'rsatkichlariga qarab baholanadi. Demak, ta'lim taraqqiyoti barchamiz uchun muhim.

Zero, mamlakatimizning taraqqiyoti, asosan, ilm-u marifat va innovatsiyalarga asoslanadi. Shunday ekan, oliy ta'limga qaratilayotgan e'tibor, asosiy tayanchimiz bo'lgan azm-u shijoatli yoshlarga g'amxo'rlik, yurtimizda ulug' maqsadga erishish yo'lidagi muhim qadamdir. Bu - yangi uyg' o'nish davriga poydevor, uning asosida, yoshlarning ertangi kunga, taraqqiyotga ishonchi aks etadi. Ta'lim rivojlanar ekan, mamlakat taraqqiyoti kafolatla-



oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish barobarida to'rtinchi vazifa - professor-o'qituvchilar va talabalar

nadi. Bu esa o'zida yangi Renessans davrini ifoda etadi.